

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2021 Vol. 4

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 4

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o‘rinbosarlari:** Zaynobiddin Abdirashidov  
Qosimboy Ma‘murov  
**Mas‘ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo‘raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G‘aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullayev.

### **Tahrir hay‘ati**

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O‘zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O‘zbekiston)	Dilorom Ashurova (O‘zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san‘at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e‘lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Deputy Editors in Chief:** Zaynabiddin Abdirashidov  
Kasimbay Mamurov  
**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullaev.

### Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Tolib Enazarov**

Dialektal matnlarning leksik tahlili metodi.....6

#### **Jo'ra Xudoyberdiyev**

Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida.....19

#### **Manzura Abjalova**

Lingvistik ontologiya – leksik ma'lumotlar bazasi.....39

#### **Dilafroz Muhammadiyeva**

“Boburnoma”ning turkiy tillardagi tarjimalarida  
paremiyalarning aks etishi.....60

#### **Zoxira Xidraliyeva**

O'zbek tilining Iqon shevasi vokalizmini areal o'rganishga doir.....74

### **Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik**

#### **Shahnoza Rahmonova**

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida g'azal janri poetikasi.....90

#### **Gulnoza Jo'rayeva**

Bolalar hajviy she'riyati – ma'rifiy va estetik tarbiya quroli  
sifatida.....103

### **Din. Falsafa. Ilohiyot**

#### **Bahriddin Umurzoqov**

“Rashahot” asarida Xojagon tariqati asoslari bayoni.....118

# CONTENT

## Linguistics

### **Tolib Enazarov**

Method of lexical analysis of dialectal texts.....6

### **Jura Khudoyberdiyev**

About aims and Organization of the first Turkological Conference.....19

### **Manzura Abjalova**

Linguistic Ontology - Lexical Database.....39

### **Dilafruz Muhammadiyeva**

Reflection of paremies in the translations of “Boburnoma”  
in turkish languages.....60

### **Zakhira Khidralieva**

On the study of the Ikan dialectvocalism of the Uzbek language.....74

## Literature. Translation studies

### **Shahnoza Rahmonova**

Poetics of the ghazal genre in uzbek poetry of the second  
half of the XX century.....90

### **Gulnoza Jurayeva**

Children's comic poetry as a mean of educational and  
aesthetic education.....103

## Religion. Philosophy. Theology

### **Bahriddin Umurzoqov**

Detailed analysis of the foundations of the Khojagon tariqat  
in the work “Rashakhot”.....118

## Bolalar hajviy she'riyati – ma'rifiy va estetik tarbiya quroli sifatida

Gulnoza Jo'rayeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada o'zbek bolalar she'riyati, uning g'oyaviy maqsadlari, yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni hamda mazkur jarayonda hajviy she'riyatning ahamiyati, shuningdek, bolalar hajviy she'riyatining o'zbek milliy madaniyati ildizlari bilan chambarchas bog'liqligi masalalari muhokama qilingan. Aslida o'zbek she'riyati, umuman, adabiyot azaldan insonlarga ma'naviy oziq bo'ladigan tarbiya quroli sifatida yaratilgan. Ayniqsa, bolalar she'riyatining birlamchi vazifasi yosh avlod ongida ezgulik tuyg'ularini shakllantirish, ularni umuminsoniy va milliy g'oyalar asosida tarbiyalash hisoblangan. Mazkur vazifani amalga oshirish jarayonida hajviy she'riyatning o'rni ayniqsa katta. Chunki bolalar ruhiyatiga og'ir, tarbiya to'g'ridan to'g'ri targ'ib qilingan she'rlardan ko'ra hajviy yo'nalishda yozilgan asarlar tezroq yetib boradi hamda adabiyot ma'naviy-ma'rifiy va etik-estetik tarbiya quroli ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

**Kalit so'zlar:** *hajviya, satira, yumor, poetika, ritm, shakl, mazmun, poetik bo'yoqdorlik, tagma'no.*

### Kirish

Adabiyot so'zining kelib chiqishini odob so'zi bilan bog'lashlari bejiz emas. Ma'no – ma'naviyat so'zlari singari, adabiyot so'zining o'zagida ham odob so'zi yotishi rad etib bo'lmas haqiqat. U qay yo'l bilan bo'lmasin, (ba'zan odobsizlikni tasvirlash bilan) insonni tarbiyalaydi. Uning hayot yo'llarini yoritadi. Bolalar she'riyati ham aynan shunday xususiyatga ega. Tarbiyalash vazifasi didni shakllantirish burchi adabiyot oldiga qadim zamonlardan qo'yilgan. Adabiyot kuchli qurol ekanini biz toshga o'yib yozilgan bitiklardagi da'vatlarda ham ko'rishimiz mumkin. Faqat bu quroldan to'g'ri yo'lda foydalanish kerak bo'ladi. Bolalar hajviy she'riyatida ham bolalarga tuti-

<sup>1</sup>Jo'rayeva Gulnoza Axmatovan – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** axmatovngulnoza@gmail.com; gulnoza@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0001-5732-2762

**Iqtibos uchun:** Jo'rayeva, G. A. 2021. "Bolalar hajviy she'riyati – ma'rifiy va estetik tarbiya quroli sifatida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 103-117.

layotgan ma'naviy ozuqaga ma'lum ma'noda ijtimoiy, tarbiyaviy yuk berish lozim. Bolalar hajviy she'riyati g'oyaviy-ma'rifiy va etik-estetik tarbiya quroli sifatida bugun o'z vazifalarini qay darajada uddalamoqda, degan savol Abdulla Qahhor jon koyitgan paytda qanchalik muhim bo'lgan bo'lsa, bugun ham shunchalik dolzarb. Diqqat markazidan chetda bo'lgan bolalar adabiyotida, aynan bolalar she'riyatida bugun yaratilayotgan asarlar abadiyatga daxldorligi jihatdan g'oyaviy-ma'rifiy va etik-estetik vazifasini bajarishi shart. Bu tushunchalarning barchasi tarbiyaga borib taqaladi. Bolani tarbiya qilishda uning yoshi, psixik xususiyatlaridan kelib chiqish shart bo'lganidek, adabiyot vositasida tarbiyalashda ham yuqoridagi xususiyatlarini inobatga olish dolzarb hisoblanadi. Shu sababdan ham bolalar adabiyotida ijod qiluvchi adiblar, shoir-u yozuvchilar so'zga ikki karra mas'uldirlar. Tarixga nazar tashlasak, didaktik adabiyot namunalari she'riy usullar bilan yozilgan go'zal namunalarini ko'p uchraydi. She'r o'zida nasrga nisbatan xoslikni jamlagani uchun ham didaktika bilan birlashib katta kuchga aylangan.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da tarbiya so'ziga “1. Ta'lim, axloq-odob va shu kabilarni o'rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg'aytirish, o'stirish. 2. Insonda ish-hunar, odob-axloq va shu kabilarni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo'lgan xislatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan ish-amallar majmuyi va shu yo'l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o'zi” tarzida ta'rif berilishi uning ma'rifiy-g'oyaviy ekanligi bilan ham izohlanadi [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006].

Pedagogik tadqiqotlarga ko'ra, insonni tarbiyalash bir umrlik va mas'uliyatli jarayon. Bu jarayondagi ilk bosqich bolalik davriga borib taqaladi. Bolalar adabiyotining ahamiyati ham aynan shunda. Ilk bosqich – poydevor demak. Uning bir umr qanday davom etishi poydevor qanday shakllanganiga borib taqaladi. Zero, Mirzo Abdulqodir Bedil ta'kidlaganidek:

*Birinchi g'ishtni mo'rt qo'yarkan me'mor,  
Yulduzga yetsa ham qiyshiqdir devor.*

Bolalar tarbiyasining me'morlari qurayotgan binolar poydevori shu jihatdan mustahkam bo'lishi kerak. Ularni tinimsiz tahlilga tortib, lozim bo'lsa, bolalar uchun ijod qiluvchi shoir-yozuvchilarga bolalar adabiyotining vazifalarni eslatish kerak.

Bugungi kunda bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalarini deya e'tirof etilayotgan yosh ijodkorlar to'plamlaridan biri Azamat Xudoyberganov va Dilnoza Tillaboyevaning “Uyalchang



chuvalchang” nomli she’riy to’plamidir. To’plamga Azamat Xudoyberganovning she’ri nomi tanlab olingan. Ijodkor bir necha yillar bolalarning adabiy-badiiy bezakli “G’uncha” jurnalida faoliyat olib borgan, barakali ijod qilib kelayotgan shoir hisoblanadi. Uning yozganlari ancha o’qishli, qalami tingan. Yozganlarida bolalarga xos hajv unsurlaridan unumli foydalanadi. She’rlarida badiiy tasvir vositalari turlicha, shuningdek, mavzu ko’lami ham ancha keng. Turli mavzular va turli yo’nalishlarda she’riy tajribalar olib boradi. Misralar qatiga bir qancha g’oyalarni yashirishga intiladi va undan yuzaga chiqadigan mazmun ancha teran. Nafaqat bolalar, balki katta yoshli insonlar ham o’qib, o’zlariga ma’lum xulosalar olishi mumkin. Azamatning she’rlarida hajv bosh unsur. U hajvdan turli maqsadlarda foydalanadi.

“Tulkivoyning hasrati” she’rida shoir so’z o’yini qiladi va bu orqali kitobxonda yengil kulgi uyg’otadi. Muallif she’rlarida hajv darajalanib boradi. Dastlabki bosqichda u shunchaki o’zining so’z tanlash mahorati-yu tildagi so’zlarning jilvasi, shakldosh so’zlar, turli iboralarni qo’llab, kulgi yaratadi. Mazkur she’r shoir ijodidagi hajvning birinchi darajasiga misol bo’la oladi:

*Buncha shirin oh, oh, oh,  
Bu xo’rozning ovozi.  
Yaqinroqdan tinglashga  
Qo’ymaydi, afsus, tozi.  
O’zim ayyor deyman-u,  
Goho dumim berar pand.  
Alamimdan shu sabab,  
Yeyman doim xo’rozaqand*

[Xudoyberganov, Tillaboyeva 2019, 4].

Xo’roz va xo’rozaqand so’zlari orqali qilingan o’yin bolalarni quvontiradi, qiziqtiradi. Haqiqatan ham tulki alamidan xo’rozaqand yeyishi va haqiqiy xo’rozni yeya olmagan kulgi uyg’otadi. She’rda jonlantirish, intoq, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan. Qofiyalar original bo’lmasa-da, bolaning xotirasida oson qoladi. O’quvchi shu singari she’rlarni tez yod oladi. Muallifning boshqa she’rlarida ham hayvonlar obrazi yetakchilik qiladi.

Shoir she’rlaridagi bosh qahramonlar faqat jonivorlar emas, muallif sabzavotlar, mevalardan ham obraz sifatida foydalanadi. Azamatning she’rlarida mazkur obrazlar jonlantiriladi: so’zlaydi, hasrat qiladi, e’tiroz bildiradi, qo’shiq ham kuylaydi. Xususan, uning “Sabzi qo’shig’i”da sabzavotning qo’shiqchi ekanini ko’ramiz. Uning zamirida yaxshi g’oya yotadi. Sabzi iste’mol qilish bolalarning bo’yini

o'stirishi hammaga ayon. She'rda Quyon uni ko'p yeb qo'yganligi va negadir qulog'i o'sib ketganligi Sabzining tilidan aytiladi. Shoir mana shu joyda go'zal bog'liqlik yasab, she'rni ustozlarga maslahat bilan yakunlaydi:

*"Quloqsiz" bolalarga  
Meni qiling tavsiya*

[Xudoyberganov, Tillaboyeva 2019, 4].

Shoir "quloqsiz" bolalarga sabzi ramziy obrazi vositasida tarbiyali bo'lishiga ishora qilyapti. Uni har kim har xil tushunishi mumkin. Kim uchundir u kitob, yana kimdir yaxshi nasihat deydi. Boshqalar esa yaxshi o'rnak deya baholashi mumkin. Bu umumiy ma'noda quloqsiz bolalarni ijobiy tomonga o'zgartiruvchi obyekt yoki subyekt bo'lishi mumkin. Albatta, bu adabiyot va aynan hajviy she'r ham bo'lishi mumkin. Mana shu daraja Azamat ijodidagi ikkinchi daraja, ya'ni hajviyadan shoir birinchi darajadan biroz yuqorilab, g'oyaviy-ma'rifiy maqsadlarda foydalana boshlaydi. Qolaversa, buni ijodkor bevosita ochiq-oydin aytmaydi, balki ishora qiladi. Hamma uni har xil tushunishi mumkin. Muallif o'quvchi o'zi mustaqil qaror chiqarishini xohlaydi va buni bolalar adabiyotida muallif va kitobxon muhoqotati sifatida baholasak bo'ladi.

Azamat Xudoyberganov ijodida mavzu ko'lami kengayib boradi: jonivorlar, sabzavotlar, bolajonlar. "Iltimos" nomli she'r ham hajviy xarakterda. Bosh qahramon sinfdoshi Ra'noni obdan maqtay boshlaydi. U sinfda eng a'lochi, eng odobli ekanligini aytadi. She'r ravon o'qiladi, bayonchilik unchalik ko'zga tashlanmagan va oxirida kulgi sahnaga chiqadi:

*Algebradan, bilasan,  
Tushunmayman men qurg'ur.  
Daftaringni ertaga  
Ko'chirishga berib tur...*

[Xudoyberganov, Tillaboyeva 2019, 5].

She'rga tanlangan nom original, uning mazmuni keyinchalik oydinlashadi. Yuqorida aytilganidek, dastlab u jumboq tarzida qoladi. Eng muhimi, asar shu kabi ko'chirmachi bolakaylarga ko'zgu tutadi. Ajab emaski, sinfda shunday she'rlar o'qilsa, ularda yaxshi bir natija bo'lar. Yuzlari qizarib, kelasi safar vazifalarni o'zlari bajarib kelsa. Qolaversa, bolalar biror manfaat uchun tilyog'lamalilik qilmaslikni ham o'rganishadi. Shu tarzda she'rning nomi nega "Iltimos" ekanligi ham oydinlashadi.

Kitobdan joy olgan "Piyoz" she'ri ham hajviy xarakterda. Unda Piyoz bekasining rahmdilligini, hatto har gal uni qo'lga olgan-

da ko'zlariga yosh olishini aytadi. Yaxshi topilma:

*Bekam juda rahmdil,  
Derdim emas bag'ritosh.  
Meni qachon archsalar,  
Ko'ziga olardi yosh* [Xudoyberganov, Tillaboyeva

2019, 6].

Ammo negadir bekasi qizib turgan tovaga tashlamoqchi bo'lgani Piyozni xavotirga soladi. Jonlantirishning go'zal namunasi. Har ikki bandda ham hajv elementlari bor. She'r bolalarga etik-estetik tarbiya beradi, ularni rahmdillikka o'rgatadi. Bir qarashda yakunlanmagandek tuyulgan she'rda, aslida, xulosa ma'lum. U ta'sirchanlikka xizmat qiladi.

Azamatning she'rlarida shakliy izlanishlar ham ko'zga tashlanadi, u bolalar she'riyati uchun an'anaviy bo'lgan 7 bo'g'inli she'rlardan voz kechib, yangi tajribalarni ham qo'llab ko'radi. "O'zi shunaqa bo'ladi" nomli she'rda aynan shu xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Unda bosh qahramon – sazan baliq hech kimda yo'q libosni kiymoqchi bo'ladi. Qisqichbaqa yangasidan qarz olib, kumush tangali libos kiyadi. She'rga quyidagicha yakunlanadi:

*O'zgartirib endi  
Hayot tarzini.  
Qochib yurar,  
To'lamasdan qarzini*

[Xudoyberganov, Tillaboyeva 2019, 8].

Bu shoirning hajviy she'rlaridagi uchinchi daraja. Unda shoir xulosa ham bermaydi, bir qarashda shu ishni ma'qullayotgandek ko'rinadi ham. Aslida unday emas. Tasvirda nozik bir xitob bor-ki, shoir bunday yondashuv orqali shunday bo'lmaslik kerakligiga ishora qiladi. Qisqichbaqa yanga deya jonivorlardagi qarindoshlikni ochib beruvchi so'zlarning ishlatilishi va buning mantiqan to'g'ri ekanligi ham kitobxonni quvontiradi. Sazan baliq va qisqichbaqa o'rtasidagi "qarindoshlik" bolalar uchun qiziqarli. Mantiqiy xatolikka ham yo'l qo'yilmagan.

"Tulki" she'rida ham firibgarlar tuzog'iga oson tushib qolayotgan sodda insonlar qismati kulgi vositasida ochib beriladi. Unda tulki boshqa jonivorlar o'zlari sodda bo'lsa, menda nima ayb deya savol qo'yadi. Bugun minglab insonlar soddaligi tufayli "tulkilar" tuzog'iga tushib qolayotgani sir emas. Mana shu jarayonni shoir bolalarga xos yumor bilan qiziqarli tarzda ifodalaydi. Mazkur she'rda jonlantirish, intoq kabi san'atlar qo'llanilgan.

Azamat Xudoyberganovning to'plamidan topishmoqlar ham

o'rin olgan. Shoir ularni ham turkumlarga ajratadi: "Poliz topishmoqlari" deb ataydi. Uning asosiy qahramonlari va yechimlari polizdagi sabzavotlar. Bu jumboqlar bolalarning ongini o'stirishga xizmat qiladi.

Shoirning "Quvnoq matematik she'rlar"i ham ahamiyatli. Ularni hisob she'rlar deyish ham mumkin. Bu orqali maktab yoshidagi bolalar matematika fanini qiziqarli tarzda o'rganishlari mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlar Azamat Xudoyberganov ijodiga emas, ijodining bir qismiga – uning "Uyalchang chugalchang" to'plamiga kiritilgan she'rlarga taalluqli. Shoir she'rlarida suhbat usuli ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Asosan hajviy she'rlar yozadigan ijodkor ular orqali bolalarga tarbiya berishga, nimadir o'rgatishga, tanqid orqali nuqsonlarni tuzatishga – so'z atalmish mo'jizaning sirli tomonlarini ko'rsatishga harakat qiladi. Uning she'rlarida ohangdorlik, o'ynoqilik yetakchi o'rin tutadi. Hajv, asosan, she'r yakunida sahnaga chiqadi. Azamatning ijodi kitobxonni ham, tanqidchini ham xursand qiladi. Kitobxon yaxshi, o'qishli asar tutgani uchun undan minnatdor bo'lsa, sinchi bugun bolalar adabiyotining munosib davomchilari borligiga umid bog'laydi.

Insonning kitobga bo'lgan munosabati uning bolaligidan shakllanadi. Bolaning ko'ngliga kirib bora oladigan, u chin deb qabul qiladigan she'r yoza bilish, ayniqsa, ulg'aygan ijodkorlardan katta mas'uliyat talab etadi. Ana shu jihatdan ham bu g'oyat murakkab vazifa. Bolalar adabiyoti bugungi kunda g'oyaviy-ma'rifiy va axloqiy-estetik tarbiya quroli sifatida o'z vazifalarini bajarishda davom etyaptimi degan savolga javob olishning birgina yo'li bugun yaratilayotgan asarlarni keng tahlil qilishdir.

Navbatdagi tahlilga tortilayotgan asar 2019-yilda "Birinchi kitobim" loyihasi asosida chop etilgan "Raqqos yaproqlar" kitobi. Undan uch nafar yosh ijodkor: Naima Anvarova, Mo'tabar Hasanova, Mohidil Abdullayevalar ijod namunalari o'rin olgan. Dastlab so'z ijodkor Naima Anvarova kitobidan o'rin olgan "Makka va hakka" to'plami haqida. Shoir she'rlaridagi samimiylik, bolalarcha soddalik insonni o'ziga tortadi. To'plamga kiritilgan "Yomg'ir" she'rida hajviylik tarang darajada. Unda ustoz bolalarga yomg'ir nima deya savol beradi. Hoshim degan topqir o'quvchining:

*Yomg'irmi, bulutlardan*

*Oqayotgan ter* [Anvarova 2019, 50],

deya qiziqarli tarzda javob berishi, albatta, bolalarcha kulgi uyg'otadi. Ushbu she'rda hajviya bolalarga tarbiya bermasligi, yangi bilim

o'rgatmasligi mumkin, lekin so'z o'yinlariga, gapga ustalikka chorlashi, shubhasiz. Bundan tashqari, mazkur she'r bolalar tasavvur olamini ham boyitadi.

Bolalar adabiyotining g'oyaviy-ma'rifiy xususiyatlarini o'zida jamlay olgan she'rlardan biri "O'xshashlik" deb nomlangan.

*Ko'zguda o'z aksini*

*Ko'rib mushuk itga der:*

*– Anavi sherni qara,*

*Beri kelsa bizni yer.*

*– Yonidagi bo'rimi?*

*Tishini qayrayapti.*

*Jonivorlar o'zini*

*Tanimay sayrayapti* [Anvarova 2019, 50].

Tanlangan sarlavha she'rga munosib. Mushuk ko'zgdagi o'z aksini tanimay sher deb o'ylayotgan bir vaqtda yonidagi it ham o'zining kim ekanligini bilmay bo'ri deb tasavvur qilyapti. Ushbu she'r yengil kulgi qo'zg'atadi. Qolaversa, bolalarni o'ziga ko'p yuqori baho bermaslikka, o'zligini tanishga o'rgatadi.

"Xo'rozqand" she'rida esa shoir kitobxonda estetik zavq uyg'otadi, so'z o'yinlari orqali hajvni yuzaga keltiradi. Unda aka ukasiga bir-ikki chaqa berib, xo'rozqand olib kelishni buyuradi. Shirinlik olib kelinganiga quvonib turgan akaga ukaning bergan javobi esa quyidagicha:

*– Qand oldim, deydi*

*Hovliqib biroz.*

*Lekin bu pulga*

*Kelmadi xo'roz* [Anvarova 2019, 50].

Kitobdagi keyingi to'plam ijodkor Mo'tabar Hasanovanning "Oyna tutar soyga oy" nomli bolalarga atalgan she'rlar to'plamidir. Mo'tabar Hasanova she'rlarida Oyga juda ko'p to'xtalgan. Kitobning nomida ham oy ishtirok etganidan buni bilish qiyin emas. To'plam nomi "Oyna tutar oyga soy" tarzida bo'lganida jarayon jonli bo'lardi, nazarimizda. Chunki oyning yuzi soyda akslanadi. Aslida, bu yerda oyna tutayotgan obraz oy emas, soy bo'lishi kerak. Axir, oyda soy ko'rinishi g'aliz. Soyda oy ko'rinadi. Shu bois soy oyga ko'zgu tutishi kerak. Kitobga nom tanlanganda, avvalo shoirning o'zi, muharrirlar, qolaversa, mana shu ishga mas'ullar bu yukni to'g'ri his qilishi zarur. Mo'tabar Hasanova ko'p hajviy mavzularga qo'l urmagan. Unda bolalar nigohi bilan o'lchanadigan mavzulardan biroz kattaroq mavzularni ko'rish mumkin. Shu jihatdan, uni o'smirlar adabiyoti deb atash o'rinli bo'ladi. Uning kitobiga kiritilgan hajviy she'rlar ham sa-

noqli, deyarli yo'q.

“Shudring” she’ri yakuniga e’tibor beraylik:

*Juda qiziq, bu tomchi*

*Buncha yorqin bo'lmasa.*

*Turar edi kechgacha*

*Agar oftob kulmasa* [Anvarova 2019, 50].

Bolalarga she’r yozayotgan, umuman, bolalar uchun mahsulot tutayotgan muallif juda ehtiyotkor bo’lishi kerak. Ushbu she’rda shudringning yashab qolishi uchun quyoshning kulishi kerak emas edi, degan xulosani berish o’rinsiz. “Agar oftob chiqmasa” deyish ham mumkin, albatta, shakliy talablarni inobatga olgan holda. Kimningdir yashab qolishi uchun kimdir kulishi tarzidagi fikrni bolaga tutishdan oldin o’ylab ko’rish kerak.

“Bahona” she’rida bolalarning dangasaligi, bilim olishga erinchoqligi tanqid ostiga olinadi. Hisob darsiga hech hafsalasi yo’q bolakay tanaffus boshlanib, dars tugab qolmaganida, masalani, albatta yechgan bo'lardim, deya afsus qiladi. Afsuski, bahonalar har doim mavjud. Bolalardagi dangasalikni muallif shu ko’rinishda ochib beradi va xulosani ularning o’ziga qoldiradi:

*Juda uzoq o'yladim,*

*Darsni buzdi tanaffus.*

*Chalinmasa qo'ng'iroq,*

*Yechardim attang, afsus* [Oyna tutar soyga oy, 66].

“Chumoli va ko’lmak” she’rida orzular tasviri go’zal berilgan. Unda chumoli shunday orzu qiladi:

*Uloqcha bo'lib*

*Qolsam shu ondan,*

*Bir sakrashda o'tardim*

*Manov ummondan* [Oyna tutar soyga oy, 66].

Chumoli bu yerda ramz, albatta. Ko’lmak ham. Ko’lmak chumoli uchun ummon bo’lib ko’rinmoqda. Bolalarning barchasi chumoli kabi orzular qilishadi, ularning istaklari chegara bilmaydi. Shoir ushbu ijod namunasi orqali shunga ishora qiladi. She’r bolalarni orzu qilishga o’rgatadi, ammo unda ham ma’lum chegaralar borligi hajv orqali ochib beriladi. Mazkur she’r chumoli hech qachon uloq bo’lolmasligini, lekin shunga qaramay “manov ummon”dan o’tishi mumkinligini eslatadi. Ya’ni, orzularni maqsadga aylantirish uchun tinimsiz harakat qilish kerak bo’ladi.

“Oy mehmonda” she’rida esa ko’lda baqalar bazmi Jamshid boshlab qolishadi. Bazm va unda baqalarning kuylashi sababini bilmochi bo’lgan quyon ularni poylasa, Oy hamma yoqqa nurdan

ko'rpa yoyib, ko'lga mehmonga kelgan bo'ladi. Bunda ham tasvir chiroyli chizilgan:

*Soyga oq ko'rpa yoyib,  
Nur taratib har yonga —  
Tug'ilgan kunmikin yo  
Oy kelibdi mehmonga [Oyna tutar soyga oy, 66].*

She'rdagi tasvir yuqorida tilga olingan "Oyna tutar soyga oy" she'ridagi tasvirga o'xshaydi. Lekin ikki tasvir orasida muayyan farqlar ham yo'q emas. Biroq tasvirlarning takror qo'llanishi o'quvchini zeriktirishi, uni o'ziga jalb qilmay qo'yishini unutmaslik kerak. Eng asosiysi, bu ijodkorning boy tasvir manbasiga ega emasligini ham ko'rsatib qo'yadi. "Vatan", "O'zbekiston" nomli she'rlar ijodkor hali to'la ijodiy quvvatga ega emasligini bildiradi.

Kitobdagi uchinchi to'plam – "Raqqos yaproqlar". Kitobning nomi bizni yaproqlarning yangi xususiyati bilan tanishtiradi. Demak, yaproqlar raqs tushar ekan-da, deya o'ylay boshlaydi bolakaylar. Mohidil Abdullayeva ijodi bilan bolalarga tarbiya berishga, ularni kitobxonlikka chorlashga harakat qiladi. Bunda bolalar adabiyotiga xos didaktik-ma'rifiy xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. To'plamning ilk she'ri "Mehr"da ham bolalarni kitobxonlikka da'vat qilmoqchi bo'lgan ijodkor "Sariq devni minib"ni o'qigan Umidjon bilan bog'liq kitob mo'jizasini kashf etib, uni kitobga o'qishga chorlagan narsa mehr ekanligini aytadi:

*Anghab yetdi lek u his,  
Na mo'jiza, na sehr.  
Chorlagandi Umidni  
Kitobga bo'lgan mehr [Abdullayeva 2019, 76].*

Ammo she'r shakl jihatdan tahrir talab.

"Samoviy jang" she'ri orqali ham shoir bolalarga tarbiya beradi: urush-janjal ko'p yomon ekanligini uqtiradi. Unda dastlab bulutlar qovoq uyib Yerdan arazlaydi. So'ngra chaqmoq ham bor kuchini ko'rsatib, maqtana boshlaydi. Farzandlarining holatidan ranjib qolgan ona tabiat afsus qila boshlaydi va "Berolmabman tarbiya" deya o'ksinib qo'yadi. Bo'ron esa chetda jimgina tomosha qachon tugashini kuzatib turadi, momaqaldiraq osmon uzra "umbaloq osha" boshlaydi. Shu payt janjalga bardosh berolmagan osmon birdan yig'lab yuboradi va to'polonchilarga qarata: *Quyosh yo'lini to'smang*, deb buyuradi. Shu bilan samoviy jang yakuniga yetib, oftob yana kula boshlaydi.

She'rda jonlantirish tasviriy vositasidan unumli foydalanilgan. Bolalarga xos o'yinqaroqlik va to'polonchilik xususiyati osmon

jismlari, tabiat hodisalariga ko'chadi. Bolalarning "umbaloq oshish" o'yini yordamida chaqmoq yanada ochiladi. Aslida, adabiyot shunday bir kuch: u kuldiradi, yig'latadi va shu orqali tarbiya beradi.

Navbatdagi "Sovg'a" nomli she'rda ham yaxshi tasvirlar, hajviy misralarni uchratish mumkin. Unda aytilishicha, tabiatning kayfiyati juda yomon. Qahramon uyqudan kechroq uyg'ongan Quyoshga salom beradi. Voqealar rivojida shumtaka shaboda sokinlikni unutilib qo'ygani aytiladi.

*Qorni yorilib ketdi*

*Oppoqqina bulutning:*

*Zaminga mehmon bo'ldi*

*Samojonning ko'zyoshi.*

*Yomg'ir sinay boshladi*

*O'rik guli bardoshin* [Abdullayeva 2019, 76].

Bulutning qorni yorilib ketgani ham hajviy, ham yaxshi topilma. Osmonning ko'zyoshlari yerga mehmon bo'lib tushgani ham original. Yomg'ir tomchilari o'rik gulining bardoshini sinay boshlashi esa jarayon. Bu bilan ijodkor ilk bahor kunlari yomg'ir yog'ishi va uning o'rik gullarini to'kib yuborishini aytmoqchi. Shu sababli ham yomg'ir tomchilari o'rik guli bardoshini sinamoqda, tomchilar qanchaga chiday olarkan deydi. Yakunda esa yomg'ir tomchilari hayot ekanligi, ular sabab maysalar olg'a deya o'sishga tayyor turganligi, o't-o'lanlar va dov-daraxtlar uchun osmondan tushgan sovg'aligi aytiladi. Umuman, she'rda mazmun va shakl bir-birini to'ldirgan.

"Qorbolaning deganlari" nomli she'r ham hajviy xarakterda. Ammo undan boshqa mazmuni qidirish kerak emas. She'rda qorbola uni oppoq qordan yasashganini, qo'llari shox-shabbadan ekanligini, boshiga ilma-teshik chelak kiydirilganini aytadi. She'r tugashida esa qorbolaning asl maqsadi, ya'ni qo'rquvi o'rtaga chiqadi:

*Qo'rqaman bir narsadan:*

*Quyunchani ko'rdingmi?*

*U kelmasin, gar kelsa*

*Yeb qo'yadi burnimni* [Abdullayeva 2019, 84].

"Berkinmachiq" she'ri bolalarning tasavvur olamini boyitadi. Unda quyosh bilan oy necha yillardan buyon bekinmachiq o'ynashi va bir-birini topa olmayotgani ifodalanadi. She'r hajviy xarakterda emas, u bolalarning dunyoqarashini kengaytirib, xotirasiga go'zal tasvirlarni muhrlaydi. Ammo jarayon tugallanmagan.

"Bodring deydi" nomli she'rda jonlantirishning go'zal namunasi qo'llanilgan. Unda bodring do'sti baqlajonni doim erkalatib, *-jon* qo'shib aytishlari-yu o'ziga nisbatan bunday hurmat yo'qligidan xafa



bo'ladi va shunday deydi:

*Baqlajon yaxshi bola,  
Doim bo'lsin sog'-tetik.  
Men esa uning do'sti  
Sabzavotov Bodringbek [Abdullayeva 2019, 85].*

Jonlantirish tasviriy vositasining o'ziga xosligi shundaki, ushbu she'rda insonlarga, ularning ism-familiyalariga qo'shiladigan -ov, -bek kabi erkalash, hurmat ma'nosini bildiruvchi qo'shimchalar sabzavot nomiga qo'shilgan va uni chin ma'noda jonlantirgan. Baqlajon so'zidagi "jon" ga taqlidan Bodring ham o'ziga hurmat talab qiladi va bu bolalar hayotida uchrab turadigan holatlardan biri.

"Ikkichi" nomi bilan atalgan hajviy she'r esa bolalarga xos qizg'anchiqlik odati soyasida ularni bilim olishga, a'lochi bo'lishga chorlovchi bir mayoq bo'lib xizmat qiladi. Unda o'quvchi bugun "ikki" olgani, endi ikkichi bo'lib qolgani va Omonni ikkichi deb chizg'ichini bermaganidan afsus qilishi tasvirlanadi. Bolalarda shunday xususiyat bor: rostdan ham ular ikkichi bolalarga hech narsasini berishmaydi. She'rdagi shu motivning o'zi bolalarni a'lochi bo'lishga chorlaydi.

*Kundalikni oyimga  
Hech ko'rsatgim kelmaydi.  
Endi Omon ham menga*

*O'chirg'ichin bermaydi [Abdullayeva 2019, 86],* deya yakunlanadi she'r. Xulosa bolalarning o'ziga tashlanadi. Bolalarning shumliklari ochib berilishida kulgi asosiy o'rin tutadi. Bolalar bir qarashda buni bilmasliklari, bosh ma'nosini tushunmasliklari mumkin, lekin keyinchalik, albatta, anglaydilar. Bolalarga xos yaxshi ma'nodagi shu kabi qizg'anchiqlikning adabiyotda aks etishi samarali.

To'plamdan joy olgan "Rahmat" nomli she'r ham didaktik mazmun kasb etgan. Kulgi vositasida ochib berilgan rahmat yig'ish jarayoni bolalarga kattalarga salom berish kerakligini o'rgatadi. Unda yo'lda amakisiga salom bergan bolakayga qarata amaki "Otangga rahmat" deydi. Buni eshitib turgan jiyan esa endi tinmasdan yo'l bo'yi hammaga salom beradi va uyga kelganda:

*...dadajon, sizga  
Ko'p rahmat olib keldim, – deydi [Abdullayeva 2019, 87].*

Bolakay dadasiga rahmat olib kelish uchun birinchi qadamni qo'ygan ekan, kelajakda u keyingi qadamlarini ham qo'yadi, albatta. Bolalarga odob-axloqni o'rgatadigan katta maktab bu adabiyot ekan, uning kuchidan bolalar tarbiyasida qay darajada foydalanilayotgani juda muhim masala ekanligini unutmaslik lozim.

Mohidilning “Muzqaymoq”, “Tasanno”, “Yoz bilan suhbat”, “Po‘pisa” singari ichi bo‘sh she‘rlari ham yo‘q emas “Tasanno” she‘ridan bo‘lak. Masalan:

*Uxlamaydi yulduzlar,*

*Tuni bilan uyg‘oqdir.*

*Chunki ular osmonga*

*Ilingan shamchiroqdir* [Abdullayeva 2019, 88].

To‘plamga kiritilgan “Tanaffus” she‘ri ham hajviy, ammo didaktik-ma‘rifiy ruhda emas. Unda bolalar eng zo‘r dars qaysi ekanligi haqida tortishib qoladilar. Kimdir tabiat, kimdir jismoniy tarbiya deydi. She‘rni quyidagi misralar yakunlab beradi:

*Endi o‘zim aytaman,*

*Bunaqasi ketmaydi.*

*Bu fanlarning hech biri*

*Tanaffusga yetmaydi* [Abdullayeva 2019, 88].

